

## O'zbekiston Aholisi Milliy Va Ijtimoiy Tarkibidagi O'zgarishlar: Muammo Tarixshunosligi

**Xudayarov Uktam Jurakulovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dosenti

**Annotasiya:** Maqolada mustabid sovet tuzimi yillarida O'zbekiston aholisining milliy va ijtimoiy tarkibini o'rghanish mavzusi bo'yicha nashr qilingan ishlar va ularda ko'tarilgan ilmiy muammolar haqidg ma'lumotlar keltirilgan. Bu esa kelajakda shu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishini olib boruvchilar uchun amaliy yordam vazifasini bajaradi.

**Kalit so'zlar:** Milliy tarkib, ijtimoiy tarkib, industrial rivojlanish, kommunistik partiya, sosialistik qurilish.

Alovida takidlab o'tish joizki, mustabid tuzum yillarida ham mavzu doirasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo yaratilgan tadqiqotlarda va ularda keltirilgan dalillarda sovet tuzumi mafkurasi va ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar aks ettirilgan. O'rta Osiyoda yashayotgan millat va elatlarning taqdiri ularning milliy urf-odatlari va an'analarini saqlab qolish va kelajak avlodga bekamu-ko'st yetkazib berish haqida deyarli biror-bir gap so'z aytilmagan.

Sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlarning asosiy qismida muammoni o'rghanishga biryoqlama e'tibor qaratilgan, ularda yagona sovet millatini yaratish va shu orqali milliy masala muammosini hal qilish asosiy vazifa qilib ko'rsatilgan. Bundan tashqari respublikaga markaz tomonidan turli millatlarga mansub kadrlar to'dasining kirib kelishi respublika iqtisodiyotini ko'tarish, ishchilar orasida malakali kadrlar sonini yanada oshirishga qaratilayotgan jarayon sifatida ta'kidlangan.

Ta'kidlab o'tilganidek, sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlarni o'rghanish jarayonida o'sha tuzumni ulug'lash g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, M.Musayevning "O'zbekiston SSR (Qisqacha tarixiy-iqtisodiy ocherk)" asarida "Kommunistik partiya va Soviet davlati qoloq millatlarning ilg'orlar darajasiga yetib olishlari uchun katta ish qildi. Bunda SSSRdagi hamma respublikalarni, shu jumladan, Sovet O'zbekistonini tubdan o'zgartirib yuborgan sosialistik industrlashtirish hal qiluvchi rol o'ynadi", deb ta'kidlangan.<sup>1</sup> Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zida jamlagan va 1958 yilda nashr qilingan<sup>2</sup> fundamental asarda O'zbekistondagi sanoatning rivojlanishi uchun ishchi kadrlarni tayyorlashda kommunistik partianing o'rni salmoqli ekanligi va bunga erishishda O'zbekistonning sosialistik qurilish yo'liga o'tganligi asosiy sabab qilib ko'rsatilgan. Ammo, O'zbekistonda mahalliy millat vakillarining sanoat sohasida xizmat qilayotgan ishchilar orasidagi ulushi qancha ekanligi haqida biror-bir so'z aytilmagan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining industrial rivojlanishi masalasiga bag'ishlangan kitobda<sup>3</sup> O'zbekistonda bu sohani rivojlantirishda sovet hokimiyati tomonidan respublikada olib borilgan ishlarning olamshumul ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib o'tilgan. Kitobda og'ir sharoitlarga qaramasdan, O'zbekiston xalq xo'jaligi yetarli miqdordagi ishchi kadrlar bilan ta'minlanganligi masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Xalq xo'jaligidagi milliy kadrlar soni, ularning ijtimoiy holati

<sup>1</sup> Мусаев М. Ўзбекистон ССР (Қисқача тарихий-иктисодий очерк). Ўзбекистон ССР Давлат Нашриёти. – Т., 1960. – Б.83.

<sup>2</sup> Узбекская ССР. Государственное издательство географической литературы. – М., 1958. – С.5.

<sup>3</sup> Ульмасбаев Ш.Н., Слива С.А. Индустриальное развитие Узбекистана за годы Советской власти. – Т.: Узбекистан, 1966. – С. 178.

haqidagi masalalar esa ko'tarilmagan. Yoki bo'lmasa, 1962 yilda nashr qilingan fundamental kitobda<sup>4</sup> sovet hokimiyatining dastlabki yillaridayoq, vayronagarchilik, ochlik va sinfiy dushmanlarning quturib qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, Kommunistik partiya va Sovet hukumati keng mehnatkashlar ommasining qo'llab-quvvatlashiga tayanib, mакtablar ishini qayta qurish, o'lkada maorifning yangi sistemasini to'la-to'kis joriy qilish yuzasidan katta ishlar qildi deb keltirilgan. Sovet tuzumi yillarida maorif sohasida erishilgan yutuqlar balandparvoz so'zlar bilan ifoda etilgan. Lekin maorif sohasi xodimlarining milliy tarkibi, Sovetlarning O'zbekiston aholisini savodsiz qilish uchun ataylab ikki marotaba alifboni almashtirganliklari haqida biror-bir faktlar keltirilmagan.

Mavzuga taalluqli yo'naliшlar bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan olimlardan biri G.R.Asonov bo'lib, uning "Dunyo aholisi"<sup>5</sup>, "Aholi geografiyasi"<sup>6</sup>, "O'zbekiston SSRning iqtisodiy va sosial geografiyasi"<sup>7</sup> kitoblari mashhurdir. Boshqa asarlarga nisbatan G.R.Asonovning asarlarida berilgan ma'lumotlar, muayyan ma'noda, to'liqligi bilan ajralib turadi. Muallif o'zining ilmiy xulosalarida sovetlar tuzumi yillarida o'tkazilgan aholi ro'yxatlari va ularda keltirilgan ma'lumotlardan keng foydalangan holda o'sha davrdagi O'zbekiston aholisining milliy va ijtimoiy tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlarni, yosh guruhlaridagi o'zgarishlarni, tug'ilish, o'lim darjasи, nikohlanish kabi jihatlarni imkon darajasida mukammal tarzda yoritadi.

O.Umurzoqovaning "Qardosh sosialistik millatlarning ulug' oilasida"<sup>8</sup> kitobida ham talaygina ma'lumotlar mavjud. Ushbu kitobda sovetlar davrida O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan tadbirlar, ularning mazmun-mohiyatiga keng to'xtalib o'tilgan. Lekin, shu narsani alohida takidlab o'tish kerakki, bu kitobda ham sovet tuzumini ulug'lash, uni ko'klarga ko'tarish g'oyalari yaqqol sezilib turadi. Go'yoki, O'zbekistonda erishilgan barcha yutuqlarning zamirida rus xalqi va bu xalqning dono yo'lboshchilik qobiliyatiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Sovet davrida O'zbekiston aholisining iqtisodiy va ijtimoiy holatini o'rganish bo'yicha ham bir qator olimlar ilmiy faoliyat olib borganlar jumladan, A.O'Imasov, N.Beknозovlar tomonidan o'tkazilgan aholi ro'yxatlari natijalari bo'yicha qator asarlar nashr qilingan. Chunonchi, O'zbekiston aholisi farovonligining o'sishi,<sup>9</sup> Aholi turmush darajasining o'sishi,<sup>10</sup> kabi asarlarda mavzuga oid bo'lgan qator fikrlar va dalillar keltirilgan hamda aholi turmush darajasining oshib borishi o'tkazilgan aholi ro'yxatlari bo'yicha tahlil qilingan.

O'zining qimmatliligi bilan ajralib turadigan ilmiy asarlardan yana biri Mullyadjanov I.R., Voronovskiy Yu.V., Sepkovskaya T.S.<sup>11</sup> tomonidan yaratilgan bo'lib, mualliflarning aholining milliy va ijtimoiy tarkibi borasida bildirilgan mulohazalariga ishning tegishli o'rinalarida murojaat qilindi.

Mavzu tarixshunosligi masalalarini tadqiq etish jarayonida bu muammo bo'yicha shug'ullangan olimlar va ularning ilmiy asarlari haqida to'xtalib o'tish borasida O'zbekiston SSR kompartiyasi Markaziy Kometetining birinchi kotibi bo'lib ishlagan Sh.R.Rashidovning "Mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalash va qishloqning turmush madaniyatini oshirish masalalari"<sup>12</sup> kitobiga to'xtalib o'tmasdan

<sup>4</sup> Ўзбекистон ССР. – Т.: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1962. – Б.82.

<sup>5</sup> Асонов Г.Р. Дунё аҳолиси. – Т.: Фан, 1969.

<sup>6</sup> Асонов Г.Р. Аҳоли географияси. – Т.: Ўқитувчи, 1978.

<sup>7</sup> Асонов Г.Р., Набиходон М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. – Т.: Ўқитувчи, 1984.

<sup>8</sup> Умурзоқова О. Қардош социалистик миллатларнинг улуғ оиласида. – Т.: Ўзбекистон ССР "Билим" жамияти, 1964.

<sup>9</sup> Ўлмасов А., Бекнозов Н. Ўзбекистон аҳолиси фаровонлигининг ўсиши. – Т.: Фан, 1974.

<sup>10</sup> Бекнозов Н. Аҳоли турмуш даражасининг ўсиши. – Т.: Ўзбекистон, 1985.

<sup>11</sup> Мулляджанов И.Р., Вороновский Ю.В., Цепковская Т.С. Население Узбекской ССР. – Т.: Узбекистан, 1973.

<sup>12</sup> Рашидов Ш.Р. Мехнаткашларни коммунистик руҳда тарбиялаш ва қишлоқнинг турмуш маданиятини ошириш масалалари. – Т.: Ўзбекистон, 1975. – Б. 8-9.

bo'lmaydi. Muallif ushbu asarda respublikada amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilib o'tish bilan birgalikda, 1959 va 1970 yilgi aholi ro'yxatlari oralig'ida O'zbekiston qishloq aholisining tarkibida oliy, o'rta maxsus va to'liqsiz o'rta ma'lumotli kishilar soni ortganligini tahlil qiladi.

R.X.Aminova tomonidan nashr qilingan kitobda<sup>13</sup> O'zbekistonda malakali ishchi kadrlarni tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda 1939, 1959 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari o'zaro qiyoslangan hamda aholining ijtimoiy tarkibi, ishchilar, xizmatchilar va kolxozchilarning savodxonlilik darajasi ko'rsatib o'tilgan.

Muallif Rahmon Karimovning "O'zbekistonda sosial-iqtisodiy taraqqiyot tarixidan"<sup>14</sup> nomli asarida 1920 yilda Turkiston ASSR aholisining ijtimoiy ahvoli va o'lkada hisobga olingan 13 ming 450 hunarmandchilik korxonalaridan 12 ming 671 tasi ishlab turganligi, shuningdek, Turkiston sanoatida 13 ming 300 ishchi ishlaganligi, hunarmandchilik korxonalarida esa 150 ming ishchi mehnat qilganliklari qayd qilingan. Asarda Turkiston ASSR, Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarining shahar va qishloqlarida 211 ming 300 kosib bo'lganligi haqida yozilgan. Ushbu manbalarning o'zi ham o'lkamizda qadimdan qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish va hunarmandchilikning yuksak darajada taraqqiy topganligini isbotlab beradi.

T.X.Tashbayeva, M.D.Savurovlar tomonidan nashr qilingan<sup>15</sup> asarda O'zbekistonda sovetlar davrida millatlar sonining ortib borishi va buning natijasida O'zbekistonning qishloq hududlarida turli millat vakillari o'rtasida nikohlar sonining ko'payishi tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston aholisining milliy tarkibidagi o'zgarishlar aholi ro'yxati bo'yicha qiyoslangan. Mavzu rejasida ko'rsatilgan masalalar mohiyatini ochib berishda murojaat etish lozim bo'lgan ilmiy manbalar, statistik to'plam va boshqa turdag'i kitoblar bir talay bo'lib, ishda ulardan iloji boricha kengroq foydalanishga harakat qilindi. Bu esa maqolaning ilmiy ahamiyatini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida sovet davrida O'zbekiston aholisining milliy va ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlar tarixini o'rganish bo'yicha bir qator asarlar nashr qilindi. Tarixga yangicha yondashish natijasida olimlarimiz tomonidan tariximizning hali to'liq o'rganilmagan jahbalariga qo'l urildi.

Open Conferences

<sup>13</sup> Аминова Р.Х. Колхозное крестьянство Узбекистана на пути к развитому социализму. – Т.: Узбекистан, 1983.

<sup>14</sup> Каримов Р. Ўзбекистонда социал-иктисодий тараққиёти тарихидан. – Т.: Фан, 1981. – Б.15.

<sup>15</sup> Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Т.: Фан, 1989.